



## G'AFUR G'ULOM XOTIRALARDA

**Naimova Ozoda Quadrat qiz i.**

*Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya :** *Akademik G'afur G'ulomning hayoti va ijodini keng targ'ib qilish, uning ijodiy merosini chuqur o'rganish hamda asarlarida bo'lgan huquqiy muammolarni o'rganish*

**Kalit so'zlar :** *Alisher Navoiy, Mirzo Abdulqodir Bedil, Vatan , Ona, ustoz .*

Inson har qancha bilimli bo'lmasin, har qancha dono va aqlli bo'lmasin, u avvalo, ona yurtiga manfaati tegmas ekan , u tarixda qolmaydi. Ona Vatan uchun , ona yurt ravnaqi uchun qo'lidan kelgan ishni qila olgan inson haqiqiy insondir.

Tarixdan bilishimiz mumkinki, uzoq paytlardan beri o'zbek adabiyoti, uning rivojlanishi uchun qiyin davr bo'ldi. Ziddiyatlar, mashaqqatlar, boshqacha so'z bilan aytganda katta qiyinchiliklarni boshidan kechirgan o'zbek adabiyoti , mustaqillik yillaridan keyin ancha rivojlandi. Adabiyotning o'rni ancha rivojlandi. Adabiyot sohasini rivojlantirish uchun barcha katta imkoniyatlar yaratildi. Bu kunlarni o'z ijodiy faoliyati davomida uchratmagan, lekin shunday kunlar kelishiga ishongan G'afur G'ulom "Sizlar kosmosga parvoz etsangiz, yelkamni tutib beraman" ,- degan so'zi adibning nafaqat adabiyotni, balki, o'sib kelayotgan yosh avlodni ham qancha sevganligini ko'rishimiz mumkin.

"Sizlarni ko'zingiz bilan vatanim jamolini, uning kelajagini ko'rib turaman", - derdi buyuk ustozimiz G'afur G'ulom.

Bilamizki, G'afur G'ulom oltmish uch yoshlarida, ya'ni payg'ambar yoshida olamdan o'tdilar. Asarlari, kitoblari esa biz bilan qoldi. Ustozimiz yuzidagi oliyanoblik siymosi , hech kimda o'xshashi yo'q G'afurona tabassumi, lutfu, o'ychanligi, zahmatkashligi, mehnatsevarligi, o'ziga xos bo'lgan hazil -mutoyibani yoqtirishi, odobi, Navoiy hamda Bedil kabi falsafiy fikrlarga ega bo'lganligi biz uchun ustozni doimo tirik bo'lganligini anglatadi.

" Yozuvchilar uyushmasiga qadimda raislar kelib ketaverardi, ammo G'afur G'ulom yangi yosh avlodni raisi sifatida turaverardi. Uyushmamizning chinakam raisi G'afur G'ulom bo'lgan, uning maktabida o'qib, Benazir saboqlarini olganmiz desam, xato bo'lmaydi, u aslo unutilmas qalamkashdir " ,-deydi O'zbekiston xalq yozuvchisi Mirmuhsin.

Barchamizga ma'lumki, tarixda adabiyotda "proletkulatchilar" atamasi paydo bo'lib, juda ko'p turdagigi maza-matrasiz misralar ko'payib ketdi. Buyuk bobokalonlarimiz Alisher Navoiy,, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrablar, Muqimiy hamda Ogahiyning asalari "feodal adabiyoti" hisoblanib chetga irtqitildi. O'zbek adabiyoti shu davrda qashshoqlashib qoldi. Ayni shu tahlikali davrda G'afur G'ulom



buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning "Chor devoni" ustida ish olib bordi. Mirzo Abdulqodir Bedil maktabiga kirdi. G'afur G'ulomning o'zi ham "Bog" atalmish go'zal she'rini xalq sevgan an'anviy aruz vaznida yaratdi. Allohga bo'lgan ishonchi, Vatan sevgisi, yurtga fidoiylilik, xalqimizning mislsiz boy va qahramonona tarixi, jahon adabiyoti unutildi. Mumtoz adabiyotimiz "feodal adabiyot" chetga irtqitildi. Xalq og'izaki ijodi haqida esa gap bo'lishi ham mumkin emas. O'sha davrning qiyinchilik, tahlikali zamonlariga yana bir misol bobokalonlarimiz Mahmudxo'ja Behbudiyarlarni o'ziga -o'zi go'r qazdirib o'ldirilgan payt, jadidlar ta'qibga olingan, adabiyot gulshanida deyarli hech qaysi ijodkor qolmagan davr edi. Mana shu davrning nafasini olish qiyin bo'lgan zamonda adabiyotimiz maydonida Jaloliddin Manguberdi monand shijoat bilan uch bahodir kirib keldi. Bular Cho'lpon, G'afur G'ulom va yosh Usmon Nosir edilar. Bu adabiyotimiz vakillarining jarangdor, mahorat tomonidan g'oyatda puxta, Navoiyona, Pushkinona yurakka yaqin she'rlari yangradi, xafaqon muhitida shodlik va quvonch shuuri paydo bo'ldi.

Shu uch o'zbek shoirlari adabiyotimiz gulshani bo'lgan she'riyatni baland pardalarda yangratdi. Bu bilan biz boshqa shoirlarning ijodini yomon deya atamoqchi emasmiz. Yurtimizda juda ham iste'dodli shoirlar ko'p edi. Ammo bu uch shoir adabiyotning cho'qqisi edi. Garchi o'sha davrning tahlikali, qatag'on, qamoq siyosati, iste'dodli adabiyotshunoslarimizning asarlarlari bosilishi man etilgan davrlarda bo'lsa ham bu vabo adabiyotimizni ravnaqini, uning rivojlanishini to'xtata olmadi. "Faxriy va abadiy raisimiz G'afur aka bizlarni o'z qanoti ostiga oldi- bu qanot juda kuchli, uzoqlarga parvoz eta oladigan qanot edi",- deydi O'zbekiston xalq yozuvchisi Mirmuhsin

Ustozimiz G'afur G'ulomning bir so'zi bor edi : " Bir-biriga ustoz, bir-biriga shogird",- degan so'zidan ustozning naqadar kamtar, bilimi dunyo qadar katta inson, dunyoqarashi teran ekanligini bilishimiz mumkin.

Keying davrlarda yozuvchilar uyushmasi kuchli iste'dod yadrosiga aylandi. Salmoqli asarlar dunyoga keldi. G'afur G'ulomning "Shum bola" , "Yodgor" , "Tirilgan murda", "Sog'inish", "Kuzatish" kabi she'r va hikoyalari badiiy jihatdan juda yetukligi bilan xalqimiz yuragidan joy oldi.

Adabiyot va san'at - bu go'yoki Hasan va Husan kabi aka -ukalardek gap. Ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Shuningdek, o'zbek adabiyotining buyuk namoyondalari Abror Hidoyatov, Shukur Burhonov haqida, shuningdek, "Halimasi ham Sorasi bo'lgan san'atim, yuragimning bir porasi bo'lg'in san'atim.." misralarini aytgan G'afur G'ulom edi.

Yashash darbozasi ostonasidan  
Zarhal kitob kabi ochilur odam  
Tiriklik ko'rkidir mehnat, muhabbat,  
Fursatdir qilguvchi aziz, mukarram



G'afur G'ulomning she'ridan olingan ushbu parchada naqar ochiqko'ngil, mehribon ekanligini ko'rishimiz mumkin.

G'afur G'ulom o'zbek adabiyoti va forsiyzabon adabiyotning mohir bilimdoni ekanligini barchamiz bilamiz. Buni quyidagicha izohlaymiz : buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning 500 yilligi munosabati bilan yubileyi 1941-yil o'tkazishi lozim edi. Ammo nemis-fashist bosqinchilarining mudhish xuruji tufayli boshlanib ketgan urush bu yubileyning kechiktirilishiga sabab bo'ldi. 1945-yil urush fashizmningning to'la va uzil-kesil mag'lubiyati bilan yakunlandi. Endi xalqimiz o'z sevikli ustoz va mutaffakkiri, olimi va shoiri Alisher Navoiyning 500 yilligini keng nishonlash imkoniyatiga ega bo'ldi. 1945-yil 15-may kuni Toshkentdagi katta kansert zalida O'zbekiston jamoatchiligi ko'p sonli mehmonlar bilan birga Navoiyning 500 yilligi tantanalarini boshlashdi. Unda akademik M.T.Oybek Navoiy to'g'risida katta doklad qilganlar.

Aynan o'sha kun Toshkentda chiqadigan "Qizil O'zbekiston" gazetasida G'afur G'ulomning "Alisher" sarlavhasi ostida she'ri e'lon qilingan. "Alisher" she'ri jami 23 to'rtlik yoki 92 banddan iborat bu she'rda G'afur G'ulom Alisher Navoiyning ijodi to'g'risida faylasuf shoir sifatida fikr yuritadi.

Yuksak tog' oralab o'kirgan sherning  
Na'rasiga tengdir aks sadosi  
Besh yuz yil yangradi tog'day Vatanda  
Buyuk Alisherning asriy nidosi

O'zbek deb atalgan ozod ulusning  
Otaxon shoiri, qadrlil ustoz  
Oshiqlar g'azalning kuyga solganda  
Ma'shuqlar dilining xonasi obod

Alisher Navoiy shunday daholardan biri. O'zbek osmonida u Mushtariy kabi paydo bo'lganida olam quchog'i to'ldi, go'yo kishilik yangi muhtaram o'g'il ko'rganday bo'ldi:

Alisher Mushtariy yulduzi kabi  
O'zbek osmonida balqigan chog'i  
Yana bir muhtaram o'g'il ko'rganday  
Kattaroq ochildi olam quchog'i.

Yuksak tog' oralab o'kirgan sherning  
Na'rasiga tengdir aks sadosi  
Besh yuz yil yangradi tog'day Vatanda  
Ulug' Alisherning asriy nidosi.



Oxirgi to'rtlik birinchi to'rtlikning takrori. Bu o'sha aks-sado . Navoiy va G'afur G'ulomning o'z xalqi, Vatani uchun , uning sharafli farzandlariga muhabbati, ular bilan iftixor qilish, bir –biriga ulanib ketgan. Yangi avlod o'z xalqini, Vatani e'zozlashda Navoiydan , G'afur G'ulomdan unutilmas saboq oladi bu she'rdan.

Ushbu she'rdan bilishimiz mumkinki, ulug' adibimiz, akademik G'afur G'ulom ulkan so'z san'atkori bo'lgan, buyuk daho , g'azal mulkinging sultoni bo'lgan Alisher Navoiyni ijodini qanchalar o'rgangan. Uning Navoiy ijodini naqadar hurmat qilishi hamda chuqur o'rganganligiga qilgan harakatini ko'rishimiz mumkin.

Ustoz G'afur G'ulom haqida O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston qahramoni Erkin Vohidov shunday degan : ustoz G'afur G'ulom haqidagi xotiralarim yozilganidan buyon ko'p yillar o'tdi. Bu vaqt ichida hayotimizda talay hodisalar sodir bo'ldi. O'zbekiston mustaqil bo'ldi. Agar adibimiz G'afur G'ulom shu kunlarda tirik bo'lganda qanday tuyg'ularni ko'ngildan kechirardi, qanday she'rlar yozardi. Bu savol mening xayolimni ko'p band qilgan. O'zimcha javob qidiraman. O'ylaymanki, Vatan istiqbolidan birinchi quvongan, hayajonli she'rlar bilan qutlagan shoir G'afur G'ulom bo'lardi. Chunki zamondoshlarimiz ichida hech kim G'afur G'ulomchalik o'zbek xalqini sevib ulug'lamagan, u qadar o'zbekona taffakkur qilib, o'zbekona she'rlar bitmagan.

G'afur G'ulom tirik bo'lganda ona yurtimiz tinchligini, xalovatini asrab turgan Prezidentimiz siyosatini ulug'lab, duolar qilib so'zlagan bo'lardi. Har qanday jamiyatning shoiriga ehtiyoji bor. Shoir – anjumanlar guli, chamanlar bulbuli, zamonning urib turgan yuragidir. Shoir –haqiqatning jarchi karnayi, adolatning keskir qilichi, muhitning havo tozalovchi momaqaldirig'idir.

G'afur G'ulom ijodi haqida, uning o'lmas asarlari haqida ko'p narsalarni o'rganyapmiz va hali ham o'rganishda davom etamiz. G'afur G'ulom dongdor, ulug' shoirligidan qat'iy nazar eng yaxshi, eng mehribon ota bo'lgan inson. Farzand tarbiyasi ham uning ijodi, ilmiy ishlari, xulosa qilib aytganda, uning allomaligi bilan bog'liq. Oltin-u gavhar zanglamasligi va hech qachon aynimasligi bilan noyobdir. Besh fazilat ustoz qalbini oftob qilib shu besh fazilat tepib turardi, bu- Vatanga sadoqat, hayotga qanoat, mehnatda matonat, do'stlar aro adolat va xalq irodasiga shijoatdir.

G'afur G'ulom –o'lmas talant sohibi. Uning o'zbek adabiyotiga , jurnalistkaga qo'shgan hissasi beqiyosdir. U har birimizning qalbimiz to'rida, uyimizdagi kitob javonlarining eng ko'rinarli, e'tirofli joylaridan o'rin olgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'afur G'ulom . Tanlangan asarlar. Nazm va nasr.- T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi, 2012- y. 352-bet.
2. G'afur G'ulomning badiiy mahorati: Ilmiy maqolalar to'plami/Nashr.tayyorl. N.Bozorova, T. Matyoqubova . – Toshkent : Toshkent davlat yuridik universiteti , 2021.-240b.



3. G'afur G'ulom xotiralarda : to'plam/ Nashrga tayyorlovchlar : N.Ramazonov, L.Ilhomjonov. O'zR Adliya vazirligi , TDYU.-Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2021.-208b